



Samarqand viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

I.CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


2025-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 10 084 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 43 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 10 041 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 17 969,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,2 % ni tashkil etdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 2 044,6 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 91,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 15 925,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,7 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 859,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,9 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)

2025-yil yanvar-iyun





Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(2023-2025 yillar yanvar-iyun, ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 882 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 38 ta, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 844 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 13 547,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 13,5 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 7 211,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni, viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 53,2 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)




Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Jomboy (46,5 m.), Qo'shrabot (151,5 %), Samarqand



(144,4 %), Paxtachi (106,9 %) tumanlari va Samarqand shahrida (133,0 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025-yil 1-iyul holatiga umumiyoq ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 2 582 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 570 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida umum ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 10 296,8 mlrd so'mga yetib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 10,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 72,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiyoq ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlataladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLA

[Ichki savdo aylanmasi](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: N.Abduraimov Tel: +99866 235 65 80 e-pochta: info@samstat.uz	Ijrochi: Vakant Tel: +99866 235 65 80 e-pochta: info@samstat.uz	Manzil: 140100, Samarqand sh., U.Tursunov ko'chasi, 82
---	---	---	--